

**Зиёвиддин МАНСУР**

**БАШАРИЯТ АҲЛИГА  
МАКТУБ**

**Наманган – 2020 йил**

**УЎК: 821.512.133-1**  
**КБК : 84 (5Ўзб) 7**  
**М - 28**

*Истеъдодли шоир, етук публицист, фаол жамоатчи Зиёвиддин Мансур ўзининг “Қалбим парчалари”, “Ҳайрат салтанати”, Дилраболар диёри”, “Муҳаббат боғи”, “Эзгулик элчиси”, “Ноёб кашфиёт”, “Тўтиё”, “Истиқбол йўли”, “Шом ва тонг”, “Ўзбекистоннинг самовий эътирофлари”, “Қуёш ҳайқириқлари”, “Аёлнинг қирқ жони тавсифи” сингари қатор шеърий китоблари билан ўз муҳлисларига эга ижокорлардан.*

*Унинг қатор шеърлари таниқли ҳофизлар томонидан севиб куйланади. Кўплаб шеърлари қорақалпоқ, рус, инглиз, немис, урду ва пуштун тилларига таржима қилинган.*

*Ўйлаймизки, юксак бадиий руҳ ва чуқур лиризм билан сугорилган шеърлардан сараланган ушбу китоб ҳам сизни бефарқ қолдирмайди, азиз шеърият ихлосмандлари!*

**ISBN – 978-9943-5920-6-3**

**© “Наманган” нашриёти 2020 йил**  
**© Зиёвиддин МАНСУРОВ 2020 йил**

**БАШАРИЯТ АҲЛИГА МАКТУБ  
(КАРАНТИНДА ЁЗИЛГАН ДОСТОН)**

**ДЕБОЧА**

Инсоният!  
Огоҳ бўл, огоҳ!  
Оғирлашиб бормоқда замон!  
Ҳар ишингдан воқиғадир Аллоҳ!  
Қадимингни ўйлаб бос ҳар он!

Гарчанд дунё глобаллашди,  
Бу ҳам кони оқибат ахир!  
Минг ошмасин бу ҳаёт шашти,  
Сўнги манзил охира ахир!

Сарҳисоб бор  
Бир кунмас-бир кун,  
Нима эксанг, шуни ўргайсан!  
Англа!  
Ҳар бир қилмишинг учун  
Қиёматда жавоб бергайсан!

Қалбимда мавж урган шу ғоя,  
Карантинда солди-да туғён:  
Келажакка асқотар,-дея  
Мавжуд ҳолни айладим достон.

Кўп ёздим бу ҳақда, йўқ сири,  
Оқибатин яшадим кутиб.  
Натижа йўқ!  
Ёздим охири  
Башарият аҳлига мактуб.

Тилагим шу:  
Чекмайлик озор,  
Яшайлик чин инсонга лойиқ.  
Мен дилдагин айладим изҳор,  
Хулосаси сендан,  
Халойиқ!

## **НИҚОБ ХУСУСИДА БИР ШИНГИЛ**

Айни пайтлар бутун оламда  
Кўп урфлар қолгач эскириб,  
Мана, энди  
Ҳар бир одамда  
Бўлди ниқоб тақмоқлик урф.

Бир замонлар,  
Муттаҳам,  
Олғир,  
Босқинчилар тақдилар ниқоб.  
Кейин эса юлғич,  
Тамаъгир  
Бузғунчилар тақдилар ниқоб.

Аста-секин ниқоб солди йўл  
Аёлларнинг салонларига.  
Кейин эса бўлиб қўлма-қўл,  
Ўтди қонун посбонларига.

Улар ниқоб кийиб,  
Тўпланиб  
Жиноятни енгмоқчи бўлди,  
Лекин  
Афсус!  
Улар

Кўплари  
Ўғри бўлди, қароқчи бўлди...  
Аста-секин роҳи рост қолиб,  
Пайдо бўлди йўли бошқалар.  
Жамиятда бўлишди ғолиб  
Тили бошқа-  
Дили бошқалар.

Улар кунда минбарлар оша  
Ваъз ўқиди,  
Мавзу-  
Тўғрилиқ.  
Тунда эса  
Бу не томоша?  
Ғойибона қилди ўғирлик...

Буткул ишғол айлаб ўрмонни  
Изғигандай тўнғиз,  
Бўрилар  
Босиб кетди бутун жаҳонни  
Гўё тўғри,  
Асли ўғрилар.

Жамият на сасиди-  
Жийиб,  
Ишлар шундай ҳолатга етди:  
Бўрилар қўй ниқобин кийиб,  
Қўраларни қийратиб кетди.

Қулоқ солсанг улар сўзига,  
Фахш бор ўй, орзу, сасида,  
Лек кўринди элнинг кўзига  
Яхшиларнинг қиёфасида.

Шайтон бўлди ё насли башар,  
Насли Шайтон одам бўлди ё.  
Каъбадан тош отиб ҳожилар,  
Шайтонларни қувлаб келди ё.

Ҳатто мўмин ҳалол-ҳаромни  
Билиб туриб, фахшга унади.  
Бора-бора одам одамни  
Куппа кундуз шилди,  
Тунади.

Кунда бири-бирин нуқишиб,  
Тергов бўлди,  
Папкалар тўлди.  
Тунда оғиз-бурун ўпишиб,  
Ўғирликни ўртада бўлди.

Тўғри келмас иши сўзига,  
“Шеф”лар ўзи нақ каззоб эди.  
Ваъз,  
Тарғибот халқнинг кўзига  
Ниқоб эди,  
Ҳа! Ниқоб эди.

Миллатларнинг қонини ича  
Балқди гўё Қуёшдай тўлиб.  
Чикди улар даҳоликкача  
Ленин бўлиб,  
Сталин бўлиб.

Тузалар,-деб инсонни кўп бор  
Дучор этди Эгам вабога.  
Мана энди айлади дучор  
Енгиш мушул бўлган балога.

Қаранг, вирус тарқалаётир  
Ўта тезоб  
Ва ўта тиғиз.  
Ахир ҳеч иш бўлмас-ку  
Содир  
Яратганнинг ихтиёрисиз!

Айтинг! Кимга қилмайди алам,  
Қабристонлар кетса қалашиб?!  
Эвоҳ!  
Учқур “Тез ёрдам”лар ҳам  
Ўликларни улгурмас ташиб.

Дил бузилди,  
Аввало,  
Эссиз!  
Эгам:  
-Турқинг кўрмайин!-деди.  
Эл бузилди,  
Буни этиб ҳис,  
Ниқоб тақмай юрмагин!-деди.

Хуллас,  
Тубан кетгач кўп инсон,  
Ўзи раво билиб шу ишни-  
Охир жорий айлади Раҳмон  
Барча учун ниқоб тақишни...

Асл ҳолат айланса таҳлил,  
Ҳаёт хуржун-  
Иқтисод хуржун,  
Лекин менинг ишончим комил:  
Йиртилади ниқоблар бир кун!

## ИНСОНИЯТ ВА ШАЙТОНИЯТ

Ривоят бор:  
Қайсидир замон  
Касри тутиб битта гуноҳнинг  
Ўз қилмиши туфайли Шайтон,  
Назаридан қолмиш Аллоҳнинг.

Шундан буён учраб бехосдан,  
Ўнг йўл турганда йўллаб сўлга-  
Одамларни у роҳи ростдан  
Чалғитармиш шайтоний йўлга.

Ўтиб қанча-қанча замонлар,  
Бирин-кетин кириб иймонга,  
Ҳақ йўлига ўтган инсонлар  
Эргашмасдан қўймиш Шайтонга.

Шайтон чидай олмай бу ҳолга  
Мақр излаб ўз бисотидан,  
Айланиб бир гўзал аёлга,  
Ўйнаш топмиш инсон зотидан.

Ана энди текин томоша –  
Бу ҳол элдан элларга ўтмиш:  
Йиллар оша,  
Асрлар оша  
Шайтон зоти болалаб кетмиш...

Қайғу тушиб шодон дилларга  
Ғамга ботиб ота – оналар  
Демиш:  
Эвоҳ! Ёмон йўлларга  
Бошлар энди шайтон болалар...



Шу зайлда бўлиниб дунё,  
Пайдо бўлмиш икки жамият –  
Таркиб топмиш бу олам аро  
Инсоният ва шайтоният.

Қайси инсон,  
Қай бири Шайтон?  
Билолмай эл бўлмиш ғамга ғарқ.  
Мана,  
Вақти келиб ногаҳон,  
Аён бўлмиш улардаги фарқ:

Инсон тукқан асл инсонлар  
Юрса эзгу ишга интилиб,  
Шайтон тукқан насли шайтонлар  
Ўтар эмиш шайтонлик қилиб.

Инсоният Ҳақни билиб ҳақ,  
Роҳи Ростга солмоқчи бўлмиш.  
Шайтоният жанг қилиб ноҳақ,  
Ер юзини олмоқчи бўлмиш.

Фашизм, нацизм ғояси  
Шайтониятнинг иши эмиш.  
Ҳатто коммунизм ғояси  
Ўшаларнинг қилмиши эмиш.

Қайда нопок ташланса қадам,  
Шайтоният йўли бор эмиш.  
Бир жинслилар никоҳида ҳам  
Ўша қавм қўли бор эмиш!

Нечун куйиб, ёнмайин ахир,  
Кенгайтириб ҳудуд,  
Сарҳадин,  
Шайтоният энди қайдадир  
Яратармиш Шайтон давлатин...

Ўй ўйлайман –  
Сураман хаёл,  
Кечар умрим хавфу хатарда.  
Шайтоният ўқталиб қурол,  
Қон тўқмоқда кўп давлатларда...

Ҳайқираман ўртаниб,  
Куйиб,  
Шайтоният!!!  
Огоҳ бўл, олам!  
Мусулмонлар ниқобин кийиб,  
Изғир Араб дунёсида ҳам.

Энг ёмони –  
Қирқ ёриб қилни,  
Илм ўрганиб,  
Ўрганиб ҳунар,  
Раҳмони йўқ ҳар бир кўнгилни  
Эгаллади Шайтон баччағар...

Афғон аро кенг отиб илдиз,  
Наркобизнесга ҳам эришди.  
Эвоҳ!  
Энди юзсиз, иймонсиз,  
Одам савдосига киришди

Лек кезолмай юртимиз узра,  
Этолмасдан бизларга зуғум,  
Кириб олиб интернет ичра,  
Онгимизга қилмоқда ҳужум.

Бундан кимнинг эти увишиб,  
Қуршаб олмас кимни хавотир:  
Шайтоният зимдан қовушиб,  
Инсоният қовушмаётир!

Шайтоният – ажал,  
Қатли ом,  
Шайтоният террор,  
“ИШИД”дир.  
Шайтоният,  
Хулласи калом,  
Қиёматнинг бошланишидир.

Эй, Худойим!  
Эзгу ниятни  
Ғолиб айла ёвуз ниятдан –  
Яъни бутун инсониятни  
Ўзинг қутқар шайтониятдан!

## **БУЛБУЛ БАХШИДАН БИР ХИРГОЙИ**

Эй,Худо! Ҳар бандани  
Бевақт қазодан асрагин,  
Ҳолати шармандали  
Кайфу сафодан асрагин.  
Ҳар бир эркак, ҳар аёл  
Ўтсин бўлиб жуфти ҳалол,  
Беювуқ афтодаҳол  
Этма, зинодан асрагин.

Хоҳласанг арзандамиз,  
Гар хоҳласанг зормандамиз,  
Хом сут эмган бандамиз,  
Кибру ҳаводан асрагин.  
Қўймадинг эшшак қилиб  
Ёинки тўнғиз, сак қилиб,  
Қадримиз юксак қилиб,  
Сийла, низодан асрагин.  
Ким сени олмабди тан  
Дўзахга тушгай дафъатан,  
Қанча кофир айлаган  
Ширку риёдан асрагин.  
Нафақат бизни, Эгам  
Ҳар бир ўғил-қизни, Эгам,  
Айла чиндан муҳтарам,  
Пуч иддаодан асрагин.  
Юртимиз яшнаб чунон  
Бўлмиш ажаб жаннатмакон,  
Энди бизларни ёмон  
Кўздан, хатодан асрагин.  
Бўлмасин юртимга хавф,  
Бўлса ўзинг эт бартараф,  
Ногаҳон ортиқча гап,  
Сўз, можародан асрагин.  
Қаҳр қилма, алҳазар!  
Сен “Тўз!”-десанг, олам тўзар,  
Ердан, Осмондан келар  
Офат, балодан асрагин!  
Беайб бир сен Худо,  
Қай зотда нуқсон йўқ, Зиё  
Қилгудай бахти қаро  
Мудҳиш хатодан асрагин.

## ЕМИРИЛГАН БУЮК САЛТАНАТ

Ушбу гаплар эмас афсона,  
Дунё гувоҳ  
Айни ҳақиқат:  
Бўлган эди танҳо-  
Ягона  
Буюк Темур қурган салтанат.  
Унда кучлар эди  
Якдил, жам  
Шу боис у бетимсол эди.  
Уни кўрмай,  
Эшитганлар ҳам  
Қудратига ожиз-  
Лол эди.

Бутун эди  
Иймон,  
Эътиқод  
Рағбат топар эди ҳалоллик.  
Салтанатда фақат  
Истеъдод  
Аҳли қилар эди фаоллик.

Арз айласа ўғил ёки қиз,  
Чол ё кампир низо чиқиб гар  
Фақат одил ҳамда тамаъсиз  
Ҳукм қилар эди қозилар.

Мансабдорла эл эди якдил,  
Лой эмасди ҳеч раҳбар кети.  
Шу боис эл ҳалол ва одил  
Раҳбарларга ишонар эди.

«Паст доим паст,  
Чўнг-чи доим чўнг»,  
Амал қилиб ушбу маталга,  
Етти пуштин суриштириб, сўнг  
Қўярдилар мансаб-амалга.

Адолатли амирнинг гирди  
Одил зотлар билан эди лик.  
Бўларди ҳар қонуннинг бурди  
Ҳурматларди уни халойиқ.

Толиби шеър ва илм аҳли  
Салтанатнинг эркаси эди.  
Яъни улар амирнинг бахтли  
Келажаги – эртаси эди.

Салтанат бой,  
Ризқ-рўз эди мўл,  
Ошиб-тошиб ётар эди кўр.  
Чунки давлат ғазнасига қўл  
Чўзолмасди бирон харомхўр.

Бутун эди дину диёнат,  
Эл қайтмасди ҳеч вақт иймондан.  
Қуйидаги ажиб ривоят  
Қолмиш бизга ўша замондан:

Сават тўла зарни кўр хотин  
Бошга қўйиб кетса Мағрибга  
Камаймасдан биронта олтин,  
Шундоқ етар эди Машрикқа.

Марказлашган шундай давлатни  
Ҳеч ёв четдан олмади босиб.  
Темурдан сўнг аҳил, омадли  
Битта издош қолмай муносиб,

Бора-бора ғаму ғашлардан  
Ҳаддан ошди ички адоват.  
Ўзаро тож-тахт талашлардан  
Емирилди шундай салтанат.

### **ЭЗГУ НИЯТ ЙЎРИҚНОМАСИ**

Гоҳо ундоқ дедик,  
Гоҳ бундоқ дедик.  
Кимни қора дедик,  
Кимни оқ дедик.

Билдик на каттани  
Ва на кичикни,  
Сийладик на итни  
Ва на кучукни.

Кечгани йўқ осон  
Динга кириш ҳам,  
Қайдадир, эҳ, ҳамон  
Диндорлар ноҷам.

Ака билан ука  
Талашди мансаб,  
Юртдош юртдош билан  
Қовушмасдан гап.

Ҳатто диндор билан  
Диндор уришди,  
Пулдор пулдор билан  
Юзин буришди.

Сувларни қуритдик,  
Ерни шўр этдик,  
Хулоса қилмадик,  
Кўзни кўр этдик.

Таассуф!  
Сўқир кўз,  
Сўқир қалб билан  
Иймонни йўқотдик,  
Кетдик юзтубан.  
Урушдик,  
Ярашдик,  
Нима талашдик?  
Бу билан дўзахга  
Ўтин қалашдик...

Зилзила,  
Дўл бўлди,  
Тўфонлар бўлди,  
Одамлар маҳв ўлди,  
Инсонлар ўлди!

Дунё кўп бўлинди,  
Сабоқ олмадик,  
Хулоса қилмадик,  
Олға жилмадик...



Табиат зуғумлар  
Кўрди қанчалар,  
Ҳайвонот ҳужумлар  
Кўрди қанчалар.

Адолат қолмади,  
Инсоф қолмади,  
Масъуллик ҳеч кимга  
Ташвиш солмади.

Нопок, ножинсларга  
Тўлди ўнг-сўллар,  
Ғазналар томонга  
Чўзилди қўллар.

Гўё эл-юрт, дедик  
Енгни шимардик,  
Давлатни таладик,  
Халқни ўмардик.

Миллат улуғлари  
Қолиб оёқда,  
Итнинг боши бўлди  
Гоҳ мистовоқда.

Йиқитдик не-не зўр  
Истеъдод аҳлин,  
Қўлладик порахўр,  
Истибдод аҳлин.

Ҳаттоки Навоий –  
Атоқли шоир,  
Бойқаро саройин  
Тарк этди охир.

Улуғбек – шоҳ эди  
Юрт, қаҳқашонга,  
Ўғлин қўли билан  
Олдик нишонга.

Оғаҳий баданин  
Ёзда босди муз,  
Буни ҳис қилмади  
Шогирд-шоҳ Феруз...

Эҳ! Булар оз эмас,  
Тугамас ҳеч гап.  
Хулоса:  
Бўлди, бас!  
Алҳазар,  
Ёраб!

Ёвлашиб миллатлар  
Миллатлар билан,  
Урушди давлатлар  
Давлатлар билан.

Мансаблар сотилди,  
Ерлар сотилди,  
Аёллар сотилди,  
Эрлар сотилди.

Коррупция нима,  
Кимнинг қилмиши?  
Бу иш халқ ишимас,  
“Катта”лар иши.

Улоқда пойгани  
От чопар,  
Шоввоз  
Совринга даъвогар

Отмас,  
Чавандоз...

Юртида яшолмай  
Инсонга лойиқ,  
Хорижда мардикор  
Бўлди халойиқ.

Гуноҳи не?  
Мавҳум,  
Айби йўқ тайин  
Ҳайитда кўмилди  
Саддам Ҳусайн...

Висир-висир гаплар  
Қайнар ҳар ёқда,  
Каримовнинг қизи  
Ётар қамоқда.

Халқнинг пешонасин  
Босгани шу шўр –  
Қонун пешволари  
Чиқса порахўр!

Қолган издошларга  
Шояд асқотса,  
Қанча генераллар  
Ҳибсда ётса.

Яхши ҳамки юртда  
Қонун устувор,  
Юртбоши таъкидлар  
Такрор ва такрор.

Айтганидай шоир  
Бу ҳолат нечук?  
Бемалол ташланса  
Арслонга кучук.

Фарзанд тарбиясин  
Айтинг,  
Ким қилар?  
Авжга миниб борса  
Қўйди-чикдилар!

Халққа ҳисоб бермай  
Аҳли “каттакон”  
Ўзлари хон бўлса,  
Кўланка-майдон.

Тиниб тинчимаса  
Афғон, Ироқ, Шом,  
Тинмай қираверса  
Авомни авом.

Бу савол жавобин  
Ким беради, ким  
На қонун ишласа,  
На шаръий ҳукм?!

Сайловда депутат  
Сайланиб олиб,  
Янги сайловгача  
Кетса йўқолиб.

Хабардор бўлмасдан  
Қишлоқ, шаҳардан  
Аксар Олий Мажлис  
Тушмас минбардан.

Тун-кун тинмаса-ю  
Давлат раҳбари  
Мудраса жойларда  
Халқ сарварлари...

Токай бу кўргулик  
Бутун дунёда  
Йўқсиллар яшаса  
Боши ғавғода?

Давлатни ўмарган  
Жавобгар,  
Бироқ  
Элни ўмарганлар  
Ҳамон бесўроқ...

\*\*\*

Кўп “изм”лар кўрдик,  
Тузумлар кўрдик,  
Барчасидан тазйиқ –  
Зуғумлар кўрдик.

Жавоб беринг,  
Жаноб социологлар!  
Қай биридан яхши  
Тутумлар кўрдик?!

На капиталистик  
Жамият керак  
Ё на коммунистик  
Жамият керак,

Эндиликда бутун  
Инсониятга  
Фақат ГУМАНИСТИК  
Жамият керак!

Бил,  
Бу-эзгу ният  
Йўриқномаси –  
Аҳли дил, ҳамият  
Йўриқномаси,  
Инсоний жамият  
Йўриқномаси,  
Яъни виждоният  
Йўриқномаси.

Хуллас,  
Турмушимда  
Бўлсин десанг тот,  
Кечирай десанг тинч-  
Осуда ҳаёт,  
Яратган Эгамни  
Дилга жо айлаб,  
Одамзот!  
Ўйга бот,  
Ҳақ! деб одим от!

### **БУТУН ДУНЁ АҲЛИН ТИЛАГИ**

Қудратинг бемисл, шавкатинг тенгсиз,  
Сенга мос тимсол йўқ, сенга йўқ эгиз.  
Ким сенга мутеъмас, ким букмагай тиз?  
Борлиқда неки бор, бир сенга қарам,  
Бизларни асрагин ўзинг, эй, Эгам!

Гуноҳкор бандамиз, Аллоҳимизсан,  
Ҳар ишдан воқифсан-огоҳимизсан.  
Ишонган ягона паноҳимизсан,  
Караминг кенг, ахир! Қўлла бу гал ҳам,  
Бизларни асрагин ўзинг, эй, Эгам!

Гўё биз куйманиб баҳор, ёз, куз, қиш,  
Чекинди ғаму ғаш, чекинди ташвиш,  
Асли сен бўлмасанг унмас бирор иш,  
Сен учун ҳеч гапмас, бериб куч, чидам,  
Бизларни асрагин ўзинг, эй, Эгам!

Дилларда ҳамиша бўлиб Сен йўлдош,  
Айладик қанча хавф, балоларга дош,  
Бу гал ҳам ёрлақаб, ўзинг бўлиб бош,  
Илоҳим, ўчмасин ҳаёт, деган шам  
Бизларни асрагин ўзинг, эй, Эгам!

Бундайин бад корни ким қилади, ким?  
Балки бу янги бир неофашизм,  
Бу – бандитизм, бу – канибализм!  
Жазосин бер, энди топсин у барҳам,  
Бизларни асрагин ўзинг, эй, Эгам!

Кони хавф шайтоний каслар қилмиши,  
Эҳтимол, бу иш ҳам ўшалар иши,  
Кошки ўз-ўзига бўлса ташвиши...  
Ёвузлар касрига қолмайлик ҳеч дам,  
Бизларни асрагин ўзинг, эй, Эгам!

Гегемон давлатлар зимдан кўриб иш,  
Бўлса ўй-орзуси бир-бирин шилиш,  
Тегмасми уларга оммадан қарғиш?  
Йўқ бўлсин-даф бўлсин менинг бу шубҳам,  
Бизларни асрагин ўзинг, эй, Эгам!

Бирники мингга, деб айтилгай бисёр,  
Офатнинг қандайдир бир ўчоғи бор,  
Наҳотки одамзот қақшар бундан зор!  
Кулфатдан ҳувиллаб қолмасин олам,  
Бизларни асрагин ўзинг, эй, Эгам!

Уханьда қирилган жонворлар учун  
Эҳтимол, табиат олмоқда ўчин.  
Ҳис этдик илоҳий қудратнинг кучин  
Мен башар номидан тавба айласам,  
Бизларни асрагин, ўзинг, эй, Эгам!

Балким, айб сохта, паст товарлардадир,  
Шуларла оммани соғарлардадир,  
Не бўлса ҳам дунё хатарлардадир,  
Бу ҳақда қанча кўп фикрласак кам,  
Бизларни асрагин ўзинг, эй, Эгам!

Шунчаки оддий бир дард эмасдир бу,  
Самовий-оразий бало балки шу!  
Ўзингдан ўзга куч унга пуч, ёҳу!  
Биргина ўзингда барча қудрат жам  
Бизларни асрагин ўзинг, эй, Эгам!

Асли сен буюрган бешта муҳим фарз,  
Гоҳида бўлмайн қолди муқим фарз...  
Хулоса қилдик, бу офат бўлиб дарс,  
Энди феъл ўнгангай номингга қасам,  
Бизларни асрагин ўзинг, эй, Эгам!

Кулгули ҳол, кўриб туриб эл зарар,  
Фожеъдан наф кўзлаб айрим кимсалар,  
Бозорда нархларни чандон оширар,  
Яхшики давлат бор, ҳар ишда ҳакам,  
Бизларни асрагин ўзинг, эй, Эгам!

Ўйлайлик, юрт озод, қўлда эрк бўлса,  
Эҳ! Ҳамон кўп жойда куфр, ширк бўлса...  
Ҳаттоки қутлуғ жой – Каъба берк бўлса!  
Бу қандай кўргилик, қандайн алам?!  
Бизларни асрагин ўзинг, эй, Эгам!



Уйлардан чиқмаслик удумин тутиб,  
Алқаймиз тинч-омон кунларни кутиб,  
Неча минг бандалар ўтди қон ютиб,  
Илоҳим чекинсин энди дарду ғам,  
Бизларни асрагин ўзинг, эй, Эгам!

Қайсидир юртларда қанча оломон,  
Ҳамон бу офатга бўлмоқда қурбон,  
Биз аҳил карвонмиз, юртбоши – сарбон.  
Посбону шифокор ҳамжиҳат, ҳамдам,  
Бизларни асрагин ўзинг, эй, Эгам!

Ўзига хос номсиз урушдир бу ҳам,  
Барча тенг оёққа туришдир бу ҳам.  
Алпомиш, Муқанна, Темурларга хос  
Аждодлар руҳидай руҳ бериб бардам,  
Бизларни асрагин, ўзинг, эй, Эгам!

Башар чун синов бу! Синов дунё бу,  
Балки фахш ишларга ҳақли жазо бу!  
Эҳтимол, қиёмат кундан садо бу,  
Не бўлса ҳам тавба қилгаймиз пурғам,  
Бизларни асрагин ўзинг, эй, Эгам!

Тилларда дуою дилда истиғфор  
Шул эваз ажабмас дард бўлса тор-мор,  
Чор-ночор кунда ҳам ўзинг мададкор,  
Ҳа, ўзинг бор! Асло бўлмагаймиз кам,  
Бизларни асрагин ўзинг, эй, Эгам!

## МЎЎТАБАР АЁЛЛАР ҲАҚИДА ТАЪКИД

Аёл улуғ,  
У – рамзи кадр,  
Аёл борки,  
Ҳаёт мағзи тўқ.  
Асли шундоқ, лекин негадир,  
Аёллардан ҳеч пайғамбар йўқ.

Рост,  
Лек фақат Ҳазрати Одам,  
Ҳақ ҳукмила яралиб чиққан.  
Қолган барча пайғамбарни ҳам  
Зоти аъло аёллар тукқан.

ЭҲМ, компьютар, робот  
Эрур юксак кашфиёт гарчанд,  
Лекин, айтинг аёл сингари  
Улар туға оларми фарзанд.

Шу боисдан Сарвари Олам  
Зап айтмишлар аёл васфида.  
Бир ҳадисда демишлар:  
Жаннат-оналарнинг оёқ остида.

Бундан ортиқ мен нима дейин?!  
Топдим, топдим сизга мос тимсол:  
Улуғликда Худодан кейин  
Сиз турасиз Ҳазрати аёл!

\*\*\*

Ҳа, мўъжиза  
Аёлнинг бари,  
Ҳаёт мағзи аёл эрур, бас!  
Бежиз дунё ғамин аксари  
Аёлларнинг бошига тушмас.

\*\*\*

Жамолингни асра, эй дунё,  
Камолингни асра, эй дунё.  
Жамолингу камолинг учун  
Аёлингни асра, эй дунё!

Биз бормидик аёл бўлмаса,  
Хор-зор эдик аёл бўлмаса.  
Абгор эдик аёл бўлмаса  
Аёлингни асра, эй дунё!

Бор этгучи ҳам аёл эрур,  
Хор этгучи ҳам аёл эрур,  
Ёр этгучи ҳам аёл эрур  
Аёлингни асра, эй дунё!

Аёлларсиз гул, чечак қайда?  
Аёлларсиз шеър, эртак қайда?  
Аёлларсиз келажак қайда?  
Аёлингни асра, эй дунё!

Хур ҳам аёл, пари ҳам аёл,  
Гўзаллар сарвари ҳам аёл.  
Дунёнинг меҳвари ҳам аёл  
Аёлингни асра, эй дунё!

Кўнгил тўлмас аёл бўлмаса,  
Эл ҳам элмас аёл бўлмаса,  
Эр ҳам бўлмас аёл бўлмаса  
Аёлингни асра, эй дунё!

Аёлларни номардлар хўрлар,  
Бейймонлар, бедардлар хўрлар.  
Аёлларни жўмардлар қўллар,  
Аёлингни асра, эй дунё!

Аёл бахти – жамият бахти,  
Миллат бахти, эл-элат бахти.  
Аёл бахти – мамлакат бахти,  
Аёлингни асра, эйдунё!

Бахтинг бекам бўлмоғи учун,  
Ҳамма хуррам бўлмоғи учун,  
Олам-олам бўлмоғи учун,  
Аёлингни асра, эй дунё!!!

### **БУЛБУЛ БАХШИДАН БИР ХИРГОЙИ**

Етар жаннат боғига  
    Ибодат қилса аёл,  
Ўз турмуш ўртоғига  
    Итоат қилса аёл.  
Ожиза билманг ҳаргиз,  
    У – тимсоли Тўмарис,  
Ёвларни чўктиргай тиз  
    Шижоат қилса аёл.  
Ёз айлаб ҳатто қишни,  
    Ўринлатар ёқишни,  
Эрга Ойдаи боқишни  
    Чин одат қилса аёл.  
Дилларни айлаб яра,  
    Бўлғуси юзи қора,  
Уйда кунда – кун ора  
    Қиёмат қилса аёл...  
Учрагай уволига,  
    Маймун йиғлар ҳолига  
Ўз жуфти ҳалолига  
    Ҳиёнат қилса аёл.  
Қилмишин ёқлаб бўлмас,  
    Севиб, ардоқлаб бўлмас,  
Мутлақо оқлаб бўлмас

Жиноят қилса аёл.  
Шукур этиб бориға,  
Кўнса пок рўзғориға,  
Етар Ҳақ дийдориға  
Қаноат қилса аёл.  
Тунлар таратгай Зиё,  
Қулдан яратгай подшо,  
Ободдир икки дунё  
Хуш ният қилса аёл.

### **О Г О Ҳ Н О М А**

Ҳақ ризқингни бериб кўрди, ўзгармадинг,  
Минг куйларга солиб кўрди, ўзгармадинг.  
Тафаккур қил! Қанча-қанча аждодингга,  
Берган жонин олиб кўрди, ўзгармадинг.

Бошингга кўп жафоларни ёғдирса ҳам,  
Қанча бало-қазоларни ёғдирса ҳам,  
Ўлат, қирғин, ваболарни ёғдирса ҳам  
Ўзгармадинг, ўзгармадинг, ўзгармадинг!

Ёғий бўлиб келди қанча-қанча жазо,  
Осий бўлиб келди қанча-қанча жазо,  
Соқий бўлиб келди қанча-қанча жазо,  
Ўзгармадинг, ўзгармадинг, ўзгармадинг!

Пайғамбарлар йўллаб Ўзи қўллаб кўрди,  
Очарчилик, йўқлик кези қўллаб кўрди,  
Фашист қилиб, Иблисни ҳам йўллаб кўрди,  
Ўзгармадинг, ўзгармадинг, ўзгармадинг!

Саркор этди қилич тутган бошлиқларни,  
Кўрдинг эл деб зардоб ютган бошлиқларни,  
Бош этди ўз қавминг кутган бошлиқларни,  
Ўзгармадинг, ўзгармадинг, ўзгармадинг!

Ер силкиниб, Ер остидан садо келди,  
Йироклардан аъюҳаннос, нидо келди,  
Кўкдан самовий-оразий бало келди,  
Ўзгармадинг, ўзгармадинг, ўзгармадинг!

Ғояларни туздинг ўйлаб даҳоликни,  
Талашасан бу дунёга пешволикни,  
Хайриятки, ололмассан Худоликни,  
Ўзгармадинг, ўзгармадинг, ўзгармадинг!

Буюкликни ҳамон тинмай этасан қайд,  
Оддий вирус учун даво топдингми, айт?!  
“Ўзи”, демай, “ўзим!” дейсан ҳатто шу пайт,  
Ўзгармадинг, ўзгармадинг, ўзгармадинг!

Насиб этди, мана, одил ҳукмдорлар,  
Комил, фозил ҳамда оқил ҳукмдорлар,  
Лекин ҳамон дилларда кўп дард-ғуборлар,  
Ўзгармадинг, ўзгармадинг, ўзгармадинг!

### **БИЗЛАРГА ҲАМ...**

Бизларга ҳам қўнгай ғубор ўзгармасак,  
Шу юртга айлаб жон нисор ўзгармасак.

Туткун эдик хурмиз, мана, юрт мустақил,  
Бўлмайлик офатга дучор ўзгармасак.

Эврилди дил, эврилди феъл, эврилди эл,  
Яшнармиди гуллаб диёр ўзгармасак?!

Бизларда беклик номи бор, бекмиз, ахир,  
Бек қавмимиз этмасми ор ўзгармасак?!

Ваъзлар, қуруқ сўзлар билан юрмайди иш,  
Ҳеч кимга гап қилмайди кор ўзгармасак.

Дунё-ўйинхона кетар унда ўйин,  
Домига тортгай бу қимор ўзгармасак.

Тангрим азиз этгайки солиҳ бандасин,  
Қилгай урушлар хору зор ўзгармасак.

Гўё Ироку Шом мисоли ёвлашиб,  
Ўз-ўзни қилгай тор-мор ўзгармасак.

Мақсад урушмасдир, қуриш, йўқса бу юрт  
Бўлгаймиди мангу баҳор ўзгармасак?!

Отанг-бозор, онанг-бозор дерки элим,  
Ўтмай касод бўлгай бозор ўзгармасак.

Ўзгарса дунёга сабоқ бергай бу эл,  
Хорижда бўлгай мардикор ўзгармасак.

Бизни кечирмайди Худо, эй кексалар,  
Ёшларга айлаб эътибор ўзгармасак.

Ёшларга ҳам маврид келар кексайгани,  
Олмоқни боз бермоғи бор ўзгармасак.

Тинчлик йўли бирликдадир, дўстликдадир,  
Ишлар абад ўлмас барор ўзгармасак.

Ният буюк: Юртни буюк юрт айламоқ,  
Рўёбга чиқмас бу қарор ўзгармасак.

Ўзгармаганлар ўзмагай олам аро,  
Ёр ўлмас олдинги қатор ўзгармасак.

Ўзгаргин, эй халқим! Зиё, нур изла, ён,  
Фатҳу зафар бўлмайди ёр ўзгармасак!

## **БАЛОЛАРНИНГ ХАТАРЛИСИ**

Балоларнинг хатарлиси –  
Ҳақиқатга ишончсизлик,  
Тамом бебаҳралик ҳисси –  
Диёнатга ишончсизлик.

Ки дарди бедаво қилгай,  
Балоларни раво қилгай,  
Жаҳаннам ичра жо қилгай  
Ибодатга ишончсизлик.

Залолатга етаклайдир,  
Фалокатга етаклайдир,  
Ҳалокатга етаклайдир  
Шариатга ишончсизлик.

Сўкилгай ҳақ ипин чоки,  
Ғажир чок маркабин моки,  
Дуруст бўлмайдди ҳаттоки  
Тариқатга ишончсизлик.

Адолат қилмаса қози,  
Худога етмай овози,  
Кўпайгай элда норози –  
Ҳақиқатга ишончсизлик.

Улуғлар хору зор бўлса,  
“Қуруқ”лар бахтиёр бўлса,  
Ҳайфким! Қайда бор бўлса  
Маърифатга ишончсизлик.

Ёмонлардан ёмон иллат,  
Гумонлардан гумон иллат,  
Худосизликка кон иллат  
Итоатга ишончсизлик.



Бу айни феъли носоғдир,  
Гуноҳи мисли тоғ-тоғдир,  
Бутун уммат учун доғдир  
Шафоатга ишончсизлик.

Ҳаромхўрлар бўлиб пулдор,  
Ҳалол-поклар эса ночор,  
Туғилгай эл аро абгор  
Сиёсатга ишончсизлик.

Оқармай косаси мангу,  
Ёғар тақчиллигу қайғу,  
Қаерда бўлса савдою  
Тижоратга ишончсизлик.

Талаблар учсалар елда,  
Мадор-куч бўлмаса белда,  
Тамом урф ўлгуси элда  
Кафолатга ишончсизлик.

Ассосиз сўзласа мулло,  
Даъвоси бўлса пуч даъво,  
Қавмда бўлғуси пешво –  
Имоматга ишончсизлик.

Ёниб баъзан дегум: Эвоҳ!  
Сабр бергин, ўзинг, Аллоҳ!  
Туғилса кимдадир гоҳ-гоҳ  
Фасоҳатга ишончсизлик?..

Илмли бўлмаин бахтли,  
Илмсиз бўлса тож-тахтли,  
Бу ҳолат уйғотар аҳли  
Раъиятга ишончсизлик.

Қай элга солса ғам-қайғу,  
Адолат йўқ, деган туйғу,  
Бўлар бу эл аро бахту  
Саодатга ишончсизлик.

Мисоликим отиб носни,  
Буюм деб эски ҳар тосни,  
Тамом қайтаргай ихлосни  
Маҳоратга ишончсизлик.

Қаерда ҳақ жазо олгай,  
Ва ноҳақ бежазо қолгай...  
Туғилмас, деб ким айтолгай  
Кафоратга ишончсизлик?!

Бўлиб қолса ҳаёт сахна,  
Эпизодларга ёт сахна,  
Солар қонунга ҳам раҳна  
Раёсатга ишончсизлик.

Текинхўр бахтга чулғанса,  
Машаққат аҳли булғанса,  
Ёмон! Шу зайли уйғонса  
Лаёқатга ишончсизлик.

Агар бўлса ҳаёт оғу –  
Ёмон ишлар ёмони бу,  
Ҳалокатнинг нишони бу  
Жамиятга ишончсизлик!

Зиёсан – бахт, самар сенда,  
Қаросан – хайф! Зарар сенда,  
Адосан! Бўлса гар сенда  
Қиёматга ишончсизлик!

**БИР ҚАРВОН БОРМОҚДА ИСТИҚБОЛ ТОМОН**

Мени сархуш айлар бир хаёл,  
Хаёлпараст эмасман, лекин:  
Бир мамлакат этмоқда ишғол  
Бутун дунё ҳамжамиятин.

Бу мамлакат – менинг Ватаним –  
Ўзбекистон аталган диёр.  
Унинг йўлин тўсма,  
Эй, ғаним!  
Чунки унга Аллоҳ мададкор.

Унда ҳамма эркин, озод, шод  
Халқлар, миллат, элатлар қадар.  
Шундай давлат бўмоқда бунёд  
Унда бўлмас хавотир, хатар.

Элим! дейди, юртим! дейди Бош,  
Халқ ҳам:  
Менинг Юртбошим! дейди.  
Дўст-ҳамжиҳат бўлиб кекса-ёш,  
Ўз эртасин ғамини ейди.

Хуллас,  
Барча аҳил-аҳлия,  
Бахтли бўлмоқ – энг олий ният.  
Шу эмасми демократия,  
Шу эмасми одил жамият!  
Унга хосдир зафар ва марра,  
Унга ҳамроҳ бўлган кам бўлмас.  
Шу боисдан яна бир қарра  
Унинг васфин қилмасам бўлмас:

\*\*\*

Эй, башар,  
Эй, тарих,  
Эй, олам-жаҳон!  
Бир карвон бормоқда истиқбол томон.  
Шавкатли Сарбон Бош бу карвон номи  
Қадимий, навқирон, хур Ўзбекистон!

\*\*\*

Ўз ўрнин қидириб,  
Ризқини териб  
Ўзлигин топгунча қон-зардоб ютган,  
Кўрган ёқасига осилавериб,  
Охири ёқасиз яқтакка ўтган.  
Дарди юз минг йиллар  
Ичра ниҳон бу –  
Ўзбекистон бу!

Тақдири азалнинг битик-хатида  
Шу ойдин қисмат бор бундан кўнгилад тўқ:  
Дунёнинг бирон бир мамлақатида  
Гербида Ҳумо бор бўлган давлат йўқ.  
Бахт қуши, деган ҳикматдан  
Нишон бу –  
Ўзбекистон бу!

Байроғин сатҳи ҳам қамраб ололган  
Заминдан то само қадар маконни.  
Англамоқ мумкин бу ёрқин тимсолдан:  
Имкони чексиздир бу хур ошённи.  
Кўкларга туташиб кетган  
Довон бу –  
Ўзбекистон бу!

Мадҳия куйланса, кўзларинг порлар,  
Борлигинг чулғагай фахру ифтихор:  
Жумлаи жаҳонни ўзига чорлар  
Оламни маҳлиё айлаган диёр!  
Қалб тўла ишқ, меҳр, ғурур бу,  
Шон бу –  
Ўзбекистон бу!

Биз яшар заминни дерлар: Осиё  
Тегирмон сўзидан олинган бу сўз.  
Балки боболар илк тегирмон барпо  
Айлаб бу ҳудудда улашган ризқ-рўз.  
Дунёда яралган  
Илк тегирмон бу –  
Ўзбекистон бу!

Навоий бобомга таъзимда олам,  
Шеър ила ўзбекнинг донғи кетгандир.  
Қуёш нури етмас овлоқларга ҳам  
Ўзи етмаса-да сўзи етгандир.  
Шеърят мулкида шоҳ бу,  
Султон бу –  
Ўзбекистон бу!

Ҳакимбек алплиги оламга аён  
Забтида тўқсон алп шашти мужассам  
Тўмарис доврўгин айласам дoston  
Таъзимга келарди Жанна д'Арк ҳам.  
Мардлар ичра асл  
Марди-майдон бу –  
Ўзбекистон бу!

Писандмас машаққат тўла синовлар,  
Ғолиб халқ ҳеч қачон чарчамас, толмас.  
Пўшт, ҳей, йўллардаги тўсиқлар, ғовлар!

Хақиқат йўлини ҳеч куч тўсолмас!  
Катта йўлга чиққан  
Катта карвон бу –  
Ўзбекистон бу!

Дерлар:  
Оққан дарё оқаверади,  
Бизга қисмат кулиб боқа бошлади:  
Хурлик нашъаси-ла тўлиб сарҳади  
Тамом янги дарё оқа бошлади.  
Дарёмас,  
Истиқбол  
Номли уммон бу –  
Ўзбекистон бу!

Даврлар келади,  
Йиллар келади,  
Ушалар дилдаги орзулар бари.  
Дунёда ҳали кўп ўрганилади  
Ўзбек давлатчилиқ тамойиллари.  
Аждодлар сурмаган  
Давру даврон бу –  
Ўзбекистон бу!

Бахт-иқбол бағрида кўрганда ўзни  
Тилларда янграгай шўх қўшиқ-ялла  
Ва дилдан отилган шу қутлуғ сўзни  
Дунё ҳам бизга жўр айтар баралла:  
Кўҳна бу жаҳонда  
Янги жаҳон бу –  
Ўзбекистон бу!

Бу қуруқ гап ёки асъаса эмас,  
Мавридимас энди шовқин-суронни.  
Энди қурол эмас, аслаҳа эмас,

Илм ва маърифат олгай жаҳонни.  
Янги давр,  
Мутлақ янги замон бу –  
Ўзбекистон бу!

\*\*\*

Не-не кунлар кўрган, эй дунё,  
Мағрур қаддин керган, эй дунё!  
Озод, эркин давлат қурмоқни  
Ўзбеклардан ўрган, эй дунё!

Юртбоши бош бунда кекса-ёш,  
Бир ёқадан чиқаргандай бош,  
Юрт равнақи йўлида дадил  
От суради бўлиб чин йўлдош.

Халқни рози қилмоқ шиори,  
Эл кўнглини олмоқ шиори,  
Катта-кичиик мансабдорларни  
Тўғри йўлга солмоқ шиори.

Хоҳи тўй, хоҳ маърака бўлғай,  
Ким ноаҳил  
Калака бўлғай,  
Эл ҳамжиҳат бўлса,  
Албатта,  
Ҳар жабҳада барака бўлғай!

Эврилди халқ,  
Эврилди замон,  
Эврилди озод Ўзбекистон.  
Илиқлашган сиёсий иқлим  
Эпкиндай кенг  
Тарқалди ҳар ён.

Бунда эсган сабо-ел тилло,  
Оқибатли қавм-эл тилло..  
Энг муҳими,  
Энг асосийси –  
Бу элга хос ажиб феъл-тилло.

Ғамни сувдай ичиб юборар,  
Ёмонликни кечиб юборар.  
Бешигига гўдакни белаб,  
Доно қилиб ечиб юборар.

Шундан баланд доимо қўли,  
Шундан очик ҳамиша дили.  
Не иш қилса, не иш бошласа  
Самоларга туташдир йўли.

Кўрган не-не жангу суронлар,  
Қурган қанча-қанча Туронлар,  
Етишмаган бежиз Муқанна,  
Мангуберди, Соҳибқиронлар.

Бардавомдир ушбу шажара,  
Писанд эмас  
Тоғ,  
Адир,  
Дара.  
Дилда борки, эзгу тилаклар  
Эгалланар ҳар қандай марра!

Ҳар иш эртанги шон учундир,  
Яшноқ Ўзбекистон учундир.  
Том маънода ҳар бир жабҳада  
Ислоҳотлар инсон учундир!



Қўрқув-ҳадик йўқ ушбу юртда,  
Ҳеч ким урмас дўқ ушбу юртда.  
Ўз турмуши,  
Ўз эртасидан  
Халқнинг кўнгли тўқ ушбу юртда!

Оққан дарё оқавераркан,  
Бойлар бойга боқавераркан.  
Насли меҳру муҳаббатли халқ  
Юракларни ёқавераркан.

Азал Фарҳод-Ширинлар аҳли,  
Муҳаббатда ҳамон тож-тахтли,  
Бор эканки  
Изланиш,  
Ижод  
Бўлгай ҳаёт файзли, фарахли?!

Бу эл билан жўшса бўлади,  
Довонлардан ошса бўлади.  
Довруқларга яна довруқлар,  
Шонларга шон қўшса бўлади!

Олдиндадир энг хуш замонлар,  
Олдиндадир давру давронлар.  
Буюк зотлар чиққан бу юртдан  
Чиқар яна буюк инсонлар.

Дунё бўстон бўлади шаксиз,  
Дориломон бўлади шаксиз.  
Юртлар аро сафлар бошида  
Ўзбекистон бўлади, шаксиз!

## ХОТИМА

Эй, одамзот!  
Ҳайф! деб энди жаҳолатга,  
Қайтар ўзни иймон,  
Дину диёнатга.  
То рўбарў бўлмай туриб қиёматга,  
Ўзгар энди,  
Ўзгар энди!  
Ўзгар энди!!!

Бу бугунги бамисоли ҳаёт-мамот  
Лаҳзаларда тўлиб-тошган қалб садоси.  
Бу мен учун,  
Бу сен учун  
Эй, ОДАМЗОТ!  
Янги давр –  
Янги замон тақазоси!

## МУНДАРИЖА

БАШАРИЯТ АҲЛИГА МАКТУБ (КАРАНТИНДА ЁЗИЛГАН ДОСТОН) ДЕБОЧА.....	3
НИҚОБ ХУСУСИДА БИР ШИНГИЛ.....	4
ИНСОНИЯТ ВА ШАЙТОНИЯТ.....	8
БУЛБУЛ БАХШИДАН БИР ХИРГОЙИ.....	11
ЕМИРИЛГАН БУЮК САЛТАНАТ.....	13
ЭЗГУ НИЯТ ЙЎРИҚНОМАСИ.....	15
БУТУН ДУНЁ АҲЛИН ТИЛАГИ.....	22
МЎЪТАБАР АЁЛЛАР ҲАҚИДА ТАЪКИД.....	26
БУЛБУЛ БАХШИДАН БИР ХИРГОЙИ.....	28
ОГОҲНОМА.....	29
БИЗЛАРГА ҲАМ.....	30
БАЛОЛАРНИНГ ХАТАРЛИСИ.....	32
БИР КАРВОН БОРМОҚДА ИСТИҚБОЛ ТОМОН.....	35
ХОТИМА.....	42

*Адабий-бадший нашр*

**Зиёвиддин МАНСУР**

# **БАШАРИЯТ АҲЛИГА МАКТУБ**

*Муҳаррир:*

Дилором

*Техник муҳаррир:*

Иброҳим ЮСУПОВ

*Мусахҳиҳ:*

Дилобар ТЎРАБОЕВА

Теришга берилди 20.05.2020.

Босишга рухсат этилди 15.06.2020й.

Бичими 60x42 1/16, Ҳажми 2.5 босма табоқ.

Адади 3000 нусха. Баҳоси келишилган нарҳда.



**“НАМАНГАН” НАШРИЁТИ**

Наманган шаҳри, Навоий кўчаси, 36.

Нашриёт лицензия рақами АИ – 156

2009 йил 14 августда берилган

**“Vodiy poligraf” МЧЖ босмахонасида чоп этилди**

**Манзил:** *Наманган шаҳри, Ғалаба кўчаси, 19- уй*

**Ziyoviddin MANSUR**

**BASHARIYAT  
AHLIGA MAKTUB**

**Namangan – 2020 yil**

**UO‘K: 821.512.133-1**

**KBK : 84 (5O‘zb) 7**

**M - 28**

*Iste‘dodli shoir, yetuk publitsist, faol jamoatchi Ziyoviddin Mansur o‘zining “Qalbim parchalari”, “Hayrat saltanati”, Dilrabolar diyori”, “Muhabbat bog‘i”, “Ezgulik elchisi”, “Noyob kashfiyot”, “To‘tiyo”, “Istiqbol yo‘li”, “Shom va tong”, “O‘zbekistonning samoviy e‘tiroflari”, “Quyosh hayqiriqlari”, “Ayolning qirq joni tavsifi” singari qator she‘riy kitoblari bilan o‘z muhlislariga ega ijokorlardan.*

*Uning qator she‘rlari taniqli hofizlar tomonidan sevib kuylanadi. Ko‘plab she‘rlari qoraqalpoq, rus, ingliz, nemis, urdu va pushtun tillariga tarjima qilingan.*

*O‘ylaymizki, yuksak badiiy ruh va chuqur lirizm bilan sug‘orilgan she‘rlardan saralangan ushbu kitob ham sizni befarq qoldirmaydi, aziz she‘riyat ixlosmandlari!*

**ISBN – 978-9943-5920-6-3**

© “Namangan” nashriyoti 2020 yil

© Ziyoviddin MANSUROV 2020 yil

**BASHARIYAT AHLIGA MAKTUB  
(KARANTINDA YOZILGAN DOSTON)**

**DEBOCHA**

Insoniyat!  
Ogoh bo‘l, ogoh!  
Og‘irlashib bormoqda zamon!  
Har ishingdan voqifdir Alloh!  
Qadimingni o‘ylab bos har on!

Garchand dunyo globallashti,  
Bu ham koni oqibat axir!  
Ming oshmasin bu hayot shashti,  
So‘nggi manzil oxirat, axir!

Sarhisob bor  
Bir kunmas-bir kun,  
Nima eksang, shuni o‘rgaysan!  
Angla!  
Har bir qilmishing uchun  
Qiyomatda javob bergaysan!

Qalbimda mavj urgan shu g‘oya,  
Karantinda soldi-da tug‘yon:  
Kelajakka asqotar, deya  
Mavjud holni ayladim doston.

Ko‘p yozdim bu haqda, yo‘q siri,  
Oqibatin yashadim kutib.  
Natija yo‘q!  
Yozdim oxiri  
Bashariyat ahliga maktub.

Tilagim shu:  
Chekmaylik ozor,  
Yashaylik chin insonga loyiq.  
Men dildagin ayladim izhor,  
Xulosasi sizdan,  
Xaloyiq!

### **NIQOB XUSUSIDA BIR SHINGIL**

Ayni paytlar butun olamda  
Ko‘p urflar qolgach eskirib,  
Mana, endi  
Har bir odamda  
Bo‘ldi niqob taqmoqlik urf.

Bir zamonlar,  
Muttaham,  
Olg‘ir,  
Bosqinchilar taqdilar niqob.  
Keyin esa yulg‘ich,  
Tama‘gir  
Buzg‘unchilar taqdilar niqob.

Asta-sekin niqob soldi yo‘l  
Ayollarning salonlariga.  
Keyin esa bo‘lib qo‘lma-qo‘l,  
O‘tdi qonun posbonlariga.

Ular niqob kiyib,  
To‘planib  
Jinoyatni yengmoqchi bo‘ldi,  
Lekin  
Afsus!  
Ular



Ko‘plari  
O‘g‘ri bo‘ldi, qaroqchi bo‘ldi...  
Asta-sekin rohi rost qolib,  
Paydo bo‘ldi yo‘li boshqalar.  
Jamiyatda bo‘lishdi g‘olib  
Tili boshqa-  
Dili boshqalar.

Ular kunda minbarlar osha  
Va‘z o‘qidi,  
Mavzu –  
To‘g‘rilik.  
Tunda esa  
Bu ne tomosha?  
G‘oyibona qildi o‘g‘irlik.

Butkul ishg‘ol aylab o‘rmonni  
Izg‘iganday to‘ng‘iz,  
Bo‘rilar,  
Bosib ketdi butun jahonni  
Go‘yo to‘g‘ri,  
Asli o‘g‘rilar.

Jamiyat na sasidi-  
Jiyib,  
Ishlar shunday holatga yetdi:  
Bo‘rilar qo‘y niqobin kiyib,  
Qo‘ralarni qiyratib ketdi.

Quloq solsang ular so‘ziga,  
Faxsh bor o‘y, orzu, sasida,  
Lek ko‘rindi elning ko‘ziga  
Yaxshilarning qiyofasida.

Shayton bo‘ldi yo nasli bashar,  
Nasli Shayton odam bo‘ldi yo.  
Ka‘badan tosh otib hojilar,  
Shaytonlarni quvlab keldi yo.

Hatto mo‘min halol-haromni  
Bilib turib, faxshga unadi.  
Bora-bora odam odamni  
Kuppa kunduz shildi,  
Tunadi.

Kunda biri-birin nuqishib,  
Tergov bo‘ldi,  
Papkalar to‘ldi.  
Tunda og‘iz-burun o‘pishib,  
O‘g‘irlikni o‘rtada bo‘ldi.

To‘g‘ri kelmas ishi so‘ziga,  
“Shef”lar o‘zi naq kazzob edi.  
Va‘z,  
Targ‘ibot xalqning ko‘ziga  
Niqob edi,  
Ha! Niqob edi.

Millatlarning qonini icha  
Balqdi go‘yo Quyoshday to‘lib.  
Chiqdi ular daholikkacha  
Lenin bo‘lib,  
Stalin bo‘lib.

Tuzalar,-deb insonni ko‘p bor  
Duchor etdi Egam vaboga.  
Mana endi ayladi duchor  
Yengish mushul bo‘lgan baloga.

Qarang, virus tarqalayotir

O'ta tezob

Va o'ta tig'iz.

Axir hech ish bo'lmas-ku

Sodir

Yaratganning ixtiyorisiz!

Ayting! Kimga qilmaydi alam,

Qabristonlar ketsa qalashib?!

Evoh!

Uchqur "Tez yordam"lar ham

O'liklarni ulgurmas tashib.

Dil buzildi,

Avvalo,

Essiz!

Egam:

"Turqing ko'rmayin!" dedi.

El buzildi,

Buni etib his,

"Niqob taqmay yurmagin!" dedi.

Xullas,

Tuban ketgach ko'p inson,

O'zi ravo bilib shu ishni –

Oxir joriy ayladi Rahmon

Barcha uchun niqob taqishni...

Asl holat aylansa tahlil,

Hayot xurjun,

Iqtisod xurjun,

Lekin mening ishonchim komil:

Yirtiladi niqoblar bir kun!

## INSONIYAT VA SHAYTONIYAT

Rivoyat bor:

Qaysidir zamon

Kasri tutib bitta gunohning

O‘z qilmishi tufayli shayton,

Nazaridan qolmish Allohning.

Shundan buyon uchrab bexosdan,

O‘ng yo‘l turganda yo‘llab so‘lga,

Odamlarni u rohi rostdan

Chalg‘itarmish shaytoniy yo‘lga.

O‘tib qancha-qancha zamonlar,

Birin-ketin kirib iymonga,

Haq yo‘liga o‘tgan insonlar

Ergashmasdan qo‘ymish shaytonga.

Shayton chiday olmay bu holga

Makr izlab o‘z bisotidan,

Aylanib bir go‘zal ayolga,

O‘ynash topmish inson zotidan.

Ana endi tekin tomosha –

Bu hol eldan ellarga o‘tmish:

Yillar osha,

Asrlar osha

Shayton zoti bolalab ketmish...

Qayg‘u tushib shodon dillarga,

G‘amga botib ota-onalar

Demish:

“Evoh! Yomon yo‘llarga

Boshlar endi shayton bolalar...”

Shu zaylda bo‘linib dunyo,  
Paydo bo‘lmish ikki jamiyat –  
Tarkib topmish bu olam aro  
Insoniyat va shaytoniyat.

Qaysi inson,  
Qaybiri Shayton?  
Bilolmay el bo‘lmish g’amga g’arq.  
Mana,  
Vaqti kelib nogahon,  
Ayon bo‘lmish ulardagi farq:

Inson tuqqan asl insonlar  
Yursa ezgu ishga intilib,  
Shayton tuqqan nasli shaytonlar  
O‘tar emish shaytonlik qilib.

Insoniyat Haqni bilib haq,  
Rohi ROSTGA solmoqchi bo‘lmish.  
Shaytoniyat jang qilib nohaq,  
Yer yuzini olmoqchi bo‘lmish.

Fashizm, natsizm g’oyasi  
Shaytoniyatning ishi emish.  
Hatto kommunizm g’oyasi  
O‘shalarning qilmishi emish.

Qayda nopok tashlansa qadam,  
Shaytoniyat yo‘li bor emish.  
Bir jinlilar nikohida ham  
O‘sha qavm qo‘li bor emish!

Nechun kuyib, yonmayin axir,  
Kengaytirib hudud,  
Sarhadin,  
Shaytoniyat endi qaydadir  
Yaratarmish Shayton davlatin...

O'y o'ylayman –  
Suraman xayol,  
Kechar umrim xavfu xatarda.  
Shaytoniyat o'qtalib qurol,  
Qon to'kmoqda ko'p davlatlarda...

Hayqiraman o'rtanib,  
Kuyib,  
Shaytoniyat!!!  
Ogoh bo'l, olam!  
Musulmonlar niqobin kiyib,  
Izg'ir arab dunyosida ham.

Eng yomoni –  
Qirq yorib qilni,  
Ilm o'rganib,  
O'rganib hunar,  
Rahmoni yo'q har bir ko'ngilni  
Egalladi Shayton bachchag'ar...

Afg'on aro keng otib ildiz,  
Narkobiznesga ham erishdi.  
Evoh!  
Endi yuzsiz, iymonsiz,  
Odam savdosiga kirishdi.

Lek kezolmay yurtimiz uzra,  
Etolmasdan bizlarga zug'um,  
Kirib olib internet ichra,  
Ongimizga qilmoqda hujum...

Bundan kimning eti uvishib,  
Qurshab olmas kimni xavotir:  
Shaytoniyat zimdan qovushib,  
Insoniyat qovushmayotir!

Shaytoniyat – ajal,  
Qatli om,  
Shaytoniyat terror,  
“ISHID”dir.  
Shaytoniyat,  
Xullasi kalom,  
Qiyomatning boshlanishidir.

Ey, Xudoyim!  
Ezgu niyatni  
G'olib ayla yovuz niyatdan –  
Ya'ni butun insoniyatni  
O'zing qutqar shaytoniyatdan!

### **BULBUL BAXSHIDAN BIR XIRGOYI**

Ey, Xudo! Har bandani  
Bevaqt qazodan asragin,  
Holati sharmandali  
Kayfu safodan asragin.  
Har bir erkak, har ayol  
O'tsin bo'lib jufti halol,  
Beyuvuq aftodahol  
Etma, zinodan asragin.

Xohlasang arzandamiz,  
Gar xohlasang zormandamiz,  
Xom sut emgan bandamiz,  
Kibru havodan asragin.  
Qo‘ymading eshshak qilib  
Yoinki to‘ng‘iz, sak qilib,  
Qadrimiz yuksak qilib,  
Siyla, nizodan asragin.  
Kim seni olmabdi tan  
Do‘zaxga tushgay daf‘atan,  
Qancha kofir aylagan  
Shirku, riyodan asragin.  
Nafaqat bizni, Egam  
Har bir o‘g‘il-qizni, Egam,  
Ayla chindan muhtaram,  
Puch iddaodan asragin.  
Yurtimiz yashnab chunon  
Bo‘lmish ajab jannatmakon,  
Endi bizlarni yomon  
Ko‘zdan, xatodan asragin.  
Bo‘lmasin yurtimga xavf,  
Bo‘lsa o‘zing et bartaraf,  
Nogahon ortiqcha gap,  
So‘z, mojarodan asragin.  
Qahr qilma, alhazar!  
Sen to‘z! desang, olam to‘zar,  
Yerdan, Osmondan kelar  
Ofat, balodan asragin!  
Beayb bir sen Xudo,  
Qay zotda nuqson yo‘q, Ziyo,  
Qilguday baxti qaro  
Mudhish xatodan asragin.



**EMIRILGAN BUYUK SALTANAT**

Ushbu gaplar emas afsona,  
Dunyo guvoh  
Ayni haqiqat:  
Bo‘lgan edi tanho-  
Yagona  
Buyuk Temur qurgan saltanat.  
Unda kuchlar edi  
Yakdil, jam  
Shu bois u betimsol edi.  
Uni ko‘rmay,  
Eshitganlar ham  
Qudratiga ojiz-  
Lol edi.

Butun edi  
Iymon,  
E’tiqod  
Rag‘bat topar edi halollik.  
Saltanatda faqat  
Iste’dod  
Ahli qilar edi faollik.

Arz aylasa o‘g‘il yoki qiz,  
Chol yo kampir nizo chiqib gar  
Faqat odil hamda tama’siz  
Hukm qilar edi qozilar.

Mansabdorla el edi yakdil,  
Loy emasdi hech rahbar keti.  
Shu bois el halol va odil  
Rahbarlarga ishonar edi.

«Past doim past,  
Cho‘ng-chi doim cho‘ng»,  
Amal qilib ushbu matalga,  
Yetti pushtin surishtirib, so‘ng  
Qo‘yardilar mansab-amalga.

Adolatli amirning girdi  
Odil zotlar bilan edi liq.  
Bo‘lardi har qonunning burdi  
Hurmatlardi uni xaloyiq.

Tolibi she‘r va ilm ahli  
Saltanatning erkasi edi.  
Ya‘ni ular amirning baxtli  
Kelajagi-ertasi edi.

Saltanat boy,  
Rizq-ro‘z edi mo‘l,  
Oshib-toshib yotar edi qo‘r.  
Chunki davlat g‘aznasiga qo‘l  
Cho‘zolmasdi biron xaromxo‘r.

Butun edi dinu diyonat,  
El qaytmasdi hech vaqt iymondan.  
Quyidagi ajib rivoyat  
Qolmish bizga o‘sha zamondan:

Savat to‘la zarni ko‘r xotin  
Boshga qo‘yib ketsa Mag‘ribga  
Kamaymasdan bironta oltin,  
Shundoq yetar edi Mashriqqa.

Markazlashgan shunday davlatni  
Hech yov chetdan olmadi bosib.  
Temurdan so‘ng ahil, omadli  
Bitta izdosh qolmay munosib,

Bora-bora g‘amu g‘ashlardan  
Haddan oshdi ichki adovat.  
O‘zaro toj-taxt talashlardan  
Yemirildi shunday saltanat.

### **EZGU NIYAT YO‘RIQNOMASI**

Goho undoq dedik,  
Goh bundoq dedik.  
Kimni qora dedik,  
Kimni oq dedik.

Bildik na kattani  
Va na kichikni,  
Siyladik na itni  
Va na kuchukni.

Kechgani yo‘q oson  
Dinga kirish ham,  
Qaydadir, eh, hamon  
Dindorlar nojam.

Aka bilan uka  
Talashdi mansab,  
Yurtdosh yurtdosh bilan  
Qovushmasdan gap,

Hatto dindor bilan  
Dindor urishdi,  
Puldor puldor bilan  
Yuzin burishdi.

Suvlarni quritdik,  
Yerni sho‘r etdik,  
Xulosa qilmadik,  
Ko‘zni ko‘r etdik.

Taassuf!  
So‘qir ko‘z,  
So‘qir qalb bilan  
Iymonni yo‘qotdik,  
Ketdik yuztuban.  
Urushdik,  
Yarashdik,  
Nima talashdik?  
Bu bilan do‘zaxga  
O‘tin qalashdik...

Zilzila,  
Do‘l bo‘ldi,  
To‘fonlar bo‘ldi,  
Odamlar mahv o‘ldi,  
Insonlar o‘ldi!

Dunyo ko‘p bo‘lindi,  
Saboq olmadik,  
Xulosa qilmadik,  
Olg‘a jilmadik...

Tabiat zug'umlar  
Ko'rdi qanchalar,  
Hayvonot hujumlar  
Ko'rdi qanchalar.

Adolat qolmadi,  
Insof qolmadi,  
Mas'ullik hech kimga  
Tashvish solmadi.

Nopok, nojinslarga  
To'ldi o'ng-so'llar,  
G'aznalar tomonga  
Cho'zildi qo'llar.

Go'yo el-yurt, dedik  
Yengni shimardik,  
Davlatni taladik,  
Xalqni o'mardik.  
Millat ulug'lari  
Qolib oyoqda,  
Itning boshi bo'ldi  
Goh mistovoqda.

Yiqitdik ne-ne zo'r  
Iste'dod ahlin,  
Qo'lladik poraxo'r,  
Istibdod ahlin.

Hattoki Navoiy –  
Atoqli shoir,  
Boyqaro saroyin  
Tark etdi oxir.

Ulug'bek – shoh edi  
Yurt, kakhashonga,  
O'g'lin qo'li bilan  
Oldik nishonga.

Ogahiy badanin  
Yozda bosdi muz,  
Buni his qilmadi  
Shogird-shoh Firuz...

Eh! Bular oz emas,  
Tugamas hech gap.  
Xulosa:  
Bo'ldi, bas!  
Alhazar,  
Yorab!

Yovlashib millatlar  
Millatlar bilan,  
Urushdi davlatlar  
Davlatlar bilan.

Mansablar sotildi,  
Yerlar sotildi,  
Ayollar sotildi,  
Erlar sotildi.

Korruptsiya nima,  
Kimning qilmishi?  
Bu ish xalq ishimas,  
“Katta”lar ishi.

Uloqda poygani  
Ot chopar,  
Shovvoz  
Sovringa da'vogar

Otmas,  
Chavandoz...

Yurtida yasholmay  
Insonga loyiq,  
Xorijda mardikor  
Bo'ldi xaloyiq.

Gunohi ne?  
Mavhum,  
Aybi yo'q tayin  
Hayitda ko'mildi  
Saddam Husayn...

Visir-visir gaplar  
Qaynar har yoqda,  
Karimovning qizi  
Yotar qamoqda.

Xalqning peshonasin  
Bosgani shu sho'r –  
Qonun peshvolari  
Chiqsa poraxo'r!

Qolgan izdoshlarga  
Shoyad asqotsa,  
Qancha generallar  
Hibsda yotsa.

Yaxshi hamki yurtda  
Qonun ustuvor,  
Yurtboshi ta'kidlar  
Takror va takror.

Aytganiday shoir  
Bu holat nechuk?  
Bemalol tashlansa  
Arslonga kuchuk.

Farzand tarbiyasini  
Ayting,  
Kim qilar?  
Avjga minib borsa  
Qo‘ydi-chiqdilar!

Xalqqa hisob bermay  
Ahli “kattakon”  
O‘zlari xon bo‘lsa,  
Ko‘lanka-maydon.

Tinib tinchimasa  
Afg‘on, Iroq, Shom,  
Tinmay qiraversa  
Avomni avom.

Bu savol javobin  
Kim beradi, kim  
Na qonun ishlasa,  
Na shar‘iy hukm?!

Saylovda deputat  
Saylanib olib,  
Yangi saylovgacha  
Ketsa yo‘qolib.

Xabardor bo‘lmasdan  
Qishloq, shahardan  
Aksar Oliy Majlis  
Tushmas minbardan.



Tun-kun tinmasayu  
Davlat rahbari  
Mudrasa joylarda  
Xalq sarvarlari.

Tokay bu ko‘rgulik  
Butun dunyoda  
Yo‘qsillar yashasa  
Boshi g‘avg‘oda?

Davlatni o‘margan  
Javobgar,  
Biroq  
Elni o‘marganlar  
Hamon beso‘roq...

\*\*\*

Ko‘p “izm”lar ko‘rdik  
Tuzumlar ko‘rdik,  
Barchasidan tazyiq–  
Zug‘umlar ko‘rdik.

Javob bering,  
Janob sotsiologlar!  
Qay biridan yaxshi  
Tutumlar ko‘rdik?!  
Na kapitalistik  
Jamiyat kerak  
Yo na kommunistik  
Jamiyat kerak,  
Endilikda butun  
Insoniyatga  
Faqat GUMANISTIK  
Jamiyat kerak!

Bil,  
Bu-ezgu niyat  
Yo‘riqnomasi–  
Ahli dil, hamiyat  
Yo‘riqnomasi,  
Insoniy jamiyat  
Yo‘riqnomasi,  
Ya’ni vijdoniyat  
Yo‘riqnomasi.

Xullas,  
Turmushimda  
Bo‘lsin desang tot,  
Kechiray, desang tinch-  
Osuda hayot,  
Yaratgan Egamni  
Dilga jo aylab,  
Odamzot!  
O‘yga bot,  
Haq! deb odim ot!

### **BUTUN DUNYO AHLIN TILAGI**

Qudrating bemisl, shavkating tengsiz,  
Senga mos timsol yo‘q, senga yo‘q egiz.  
Kim senga mute’mas, kim bukmagay tiz?  
Borliqda neki bor, bir senga qaram,  
Bizlarni asragin o‘zing, ey, Egam!

Gunohkor bandamiz, Allohimizsan,  
Har ishdan voqifsan-ogohimizsan.  
Ishongan yagona panohimizsan,  
Karaming keng, axir! Qo‘lla bu gal ham,  
Bizlarni asragin o‘zing, ey, Egam!

Go‘yo biz kuymanib bahor, yoz, kuz, qish,  
Chekindi g‘amu g‘ash, chekindi tashvish,  
Asli sen bo‘lmasang unmas biror ish,  
Sen uchun hech gapmas, berib kuch, chidam,  
Bizlarni asragin o‘zing, ey, Egam!

Dillarda hamisha bo‘lib Sen yo‘ldosh,  
Ayladik qancha xavf, balolarga dosh,  
Bu gal ham yorlaqab, o‘zing bo‘lib bosh,  
Ilohim, o‘chmasin hayot, degan sham  
Bizlarni asragin o‘zing, ey, Egam!

Bundayin bad korni kim qiladi, kim?  
Balki bu yangi bir neofashizm,  
Bu – banditizm, bu – kanibalizm!  
Jazosin ber, endi topsin u barham,  
Bizlarni asragin o‘zing, ey, Egam!

Koni xavf shaytoniy kaslar qilmishi,  
Ehtimol, bu ish ham o‘shalar ishi,  
Koshki o‘z-o‘ziga bo‘lsa tashvishi.  
Yovuzlar kasriga qolmaylik hech dam,  
Bizlarni asragin o‘zing, ey, Egam!

Gegemon davlatlar zimdan ko‘rib ish,  
Bo‘lsa o‘y-orzusi bir-birin shilish,  
Tegmasmi ularga ommadan qarg‘ish?  
Yo‘q bo‘lsin-daf bo‘lsin mening bu shubham,  
Bizlarni asragin o‘zing, ey, Egam!

Birniki mingga, deb aytilgay bisyor,  
Ofatning qandaydir bir o‘chog‘i bor,  
Nahotki odamzot qaqshar bundan zor!  
Kulfatdan huvillab qolmasin olam,  
Bizlarni asragin o‘zing, ey, Egam!

Uxanda qirilgan jonvorlar uchun  
Ehtimol, tabiat olmoqda o‘chin.  
His etdik ilohiy qudratning kuchin  
Men bashar nomidan tavba aylasam,  
Bizlarni asragin, o‘zing, ey, Egam!

Balkim, ayb soxta, past tovarlardadir,  
Shularla ommani sog‘arlardadir,  
Ne bo‘lsa ham dunyo xatarlardadir,  
Bu haqda qancha ko‘p fikrlasak kam,  
Bizlarni asragin o‘zing, ey, Egam!

Shunchaki oddiy bir dard emasdir bu,  
Samoviy-oraziy balo balki shu!  
O‘zingdan o‘zga kuch unga puch, yohu!  
Birgina o‘zingda barcha qudrat jam  
Bizlarni asragin o‘zing, ey, Egam!

Asli sen buyurgan beshta muhim farz,  
Gohida bo‘lmayin qoldi muqim farz...  
Xulosa qildik, bu ofat bo‘lib dars,  
Endi fe‘l o‘nglangay nomingga qasam,  
Bizlarni asragin o‘zing, ey, Egam!

Kulguli hol, ko‘rib turib el zarar,  
Foje‘dan naf ko‘zlab ayrim kimsalar,  
Bozorda narxlarni chandon oshirar,  
Yaxshiki davlat bor, har ishda hakam,  
Bizlarni asragin o‘zing, ey, Egam!

O‘ylaylik, yurt ozod, qo‘lda erk bo‘lsa,  
Eh! Hamon ko‘p joyda kufr, shirk bo‘lsa...  
Hattoki qutlug‘ joy–Ka‘ba berk bo‘lsa!  
Bu qanday ko‘rgilik, qandayin alam?!  
Bizlarni asragin o‘zing, ey, Egam!

Uylardan chiqmaslik udumin tutib,  
Oqlaymiz tinch-omon kunlarni kutib,  
Necha ming bandalar o'tdi qon yutib,  
Ilohim chekinsin endi dardu g'am,  
Bizlarni asragin o'zing, ey, Egam!

Qaysidir yurtlarda qancha olomon,  
Hamon bu ofatga bo'lmoqda qurbon,  
Biz ahil karvonmiz, yurtboshi – sarbon.  
Posbonu shifokor hamjihat, hamdam,  
Bizlarni asragin o'zing, ey, Egam!

O'ziga xos nomsiz urushdir bu ham,  
Barcha teng oyoqqa turishdir bu ham.  
Alpomish, Muqanna, Temurlarga xos  
Ajdodlar ruhiday ruh berib bardam,  
Bizlarni asragin, o'zing, ey, Egam!

Bashar chun sinov bu! Sinov dunyo bu,  
Balki faxsh ishlarga haqli jazo bu!  
Ehtimol, qiyomat kundan sado bu,  
Ne bo'lsa ham tavba qilgaymiz purg'am,  
Bizlarni asragin o'zing, ey, Egam!

Tillarda duoyu, dilda istig'for  
Shul evaz ajabmas, dard bo'lsa tor-mor,  
Chor-nochor kunda ham o'zing madadkor,  
Ha, o'zing bor! Aslo bo'lmagaymiz kam,  
Bizlarni asragin o'zing, ey, Egam!

## МО‘ТАBAR AYOLLAR HAQIDA TA‘KID

Ayol ulug‘,  
U–ramzi qadr,  
Ayol borki,  
Hayot mag‘zi to‘q.  
Asli shundoq, lekin negadir,  
Ayollardan hech payg‘ambar yo‘q.

Rost,  
Lek faqat Hazrati Odam,  
Haq hukmi-la yaralib chiqqan.  
Qolgan barcha payg‘ambarni ham  
Zoti a‘lo ayollar tuqqan.

EHM, komp‘yuter, robot  
Erur yuksak kashfiyot garchand,  
Lekin, ayting ayol singari  
Ular tug‘a olarmi farzand.

Shu boisdan Sarvari Olam  
Zap aytmishlar ayol vasfida.  
Bir hadisda demishlar:  
Jannat–onalarning oyoq ostida.

Bundan ortiq men nima deyin?!  
Topdim, topdim sizga mos timsol:  
Ulug‘likda Xudodan keyin  
Siz turasiz Hazrati ayol!

\*\*\*

Ha, mo‘‘jiza  
Ayolning bari,  
Hayot mag‘zi ayol erur, bas!  
Bejiz dunyo g‘amin aksari  
Ayollarning boshiga tushmas.

\*\*\*

Jamolingni asra, ey dunyo,  
Kamolingni asra, ey dunyo.  
Jamolingu kamoling uchun  
Ayolingni asra, ey dunyo!

Biz bormidik ayol bo'lmasa,  
Xor-zor edik ayol bo'lmasa.  
Abgor edik ayol bo'lmasa  
Ayolingni asra, ey dunyo!

Bor etguchi ham ayol erur,  
Xor etguchi ham ayol erur,  
Yor etguchi ham ayol erur  
Ayolingni asra, ey dunyo!

Ayollarsiz gul, chechak qayda,  
Ayollarsiz she'r, ertak qayda?  
Ayollarsiz kelajak qayda  
Ayolingni asra, ey dunyo!

Hur ham ayol, pari ham ayol,  
Go'zallar sarvari ham ayol.  
Dunyoning mehvari ham ayol  
Ayolingni asra, ey dunyo!

Ko'ngil to'lmas ayol bo'lmasa,  
El ham elmas ayol bo'lmasa,  
Er ham bo'lmas ayol bo'lmasa  
Ayolingni asra, ey dunyo!

Ayollarni nomardlar xo'rlar,  
Beiymonlar, bedardlar xo'rlar.  
Ayollarni jo'mardlar qo'llar,  
Ayolingni asra, ey dunyo!

Ayol baxti–jamiyat baxti,  
Millat baxti, el-elat baxti.  
Ayol baxti-mamlakat baxti  
Ayolingni asra, eydunyo!

Baxting bekam bo‘lmog’i uchun,  
Hamma xurram bo‘lmog’i uchun,  
Olam-olam bo‘lmog’i uchun  
Ayolingni asra, ey dunyo!!!

### **BULBUL BAXSHIDAN BIR XIRGOYI**

Etar jannat bog’iga  
Ibodat qilsa ayol,  
O‘z turmush o‘rtog’iga  
Itoat qilsa ayol.  
Ojiza bilmang hargiz,  
U – timsoli To‘maris,  
Yovlarni cho‘ktirgay tiz  
Shijoat qilsa ayol.  
Yoz aylab hatto qishni,  
O‘rinlatar yoqishni,  
Erga Oyday boqishni  
Chin odat qilsa ayol.  
Dillarni aylab yara,  
Bo‘lg’usi yuzi qora,  
Uyda kunda – kunora  
Qiyomat qilsa ayol...  
Uchragay uvoliga,  
Maymun yig’lar holiga,  
O‘z jufti haloliga  
Xiyonat qilsa ayol.  
Qilmishin yoqlab bo‘lmas,  
Sevib, ardoqlab bo‘lmas,  
Mutlaqo oqlab bo‘lmas



Jinoyat qilsa ayol.  
Shukur etib boriga,  
Ko'nsa pok ro'zg'origa,  
Yetar Haq diydoriga  
Qanoat qilsa ayol.  
Tunlar taratgay Ziyο,  
Quldan yaratgay podsho,  
Oboddir ikki dunyo  
Xush niyat qilsa ayol.

**O G O H N O M A**

Haq rizqingni berib ko'rdi, o'zgarmading,  
Ming kuylarga solib ko'rdi, o'zgarmading.  
Tafakkur qil! Qancha-qancha ajdodingga  
Bergan jonin olib ko'rdi, o'zgarmading.

Boshingga ko'p jafolarni yog'dirsa ham,  
Qancha balo-qazolarni yog'dirsa ham,  
O'lat, qirg'in, vabolarni yog'dirsa ham  
O'zgarmading, o'zgarmading, o'zgarmading!

Yog'iy bo'lib keldi qancha-qancha jazo,  
Osiy bo'lib keldi qancha-qancha jazo,  
Soqiy bo'lib keldi qancha-qancha jazo,  
O'zgarmading, o'zgarmading, o'zgarmading!

Payg'ambarlar yo'llab O'zi qo'llab ko'rdi,  
Ocharchilik, yo'qlik kezi qo'llab ko'rdi,  
Fashist qilib, Iblisni ham yo'llab ko'rdi  
O'zgarmading, o'zgarmading, o'zgarmading!

Sarkor etdi qilich tutgan boshliqlarni,  
Ko'rding el deb zardob yutgan boshliqlarni,  
Bosh etdi o'z qavming kutgan boshliqlarni,  
O'zgarmading, o'zgarmading, o'zgarmading!

Yer silkinib, Yer ostidan sado keldi,  
Yiroqlardan a'yuhannos, nido keldi,  
Ko'kdan samoviy-oraziy balo keldi,  
O'zgarmading, o'zgarmading, o'zgarmading!

G'oyalarni tuzding o'ylab daholikni,  
Talashasan bu dunyoga peshvolikni,  
Xayriyatki, ololmassan Xudolikni,  
O'zgarmading, o'zgarmading, o'zgarmading!

Buyuklikni hamon tinmay etasan qayd,  
Oddiy virus uchun davo topdingmi, ayt?!  
O'zi, demay, o'zim! deysan hatto shu payt,  
O'zgarmading, o'zgarmading, o'zgarmading!

Nasib etdi, mana, odil hukmdorlar,  
Komial, fozil hamda oqil hukmdorlar,  
Lekin hamon dillarda ko'p dard-g'uborlar,  
O'zgarmading, o'zgarmading, o'zgarmading!

### **BIZLARGA HAM...**

Bizlarga ham qo'ngay g'ubor o'zgarماسak,  
Shu yurtga aylab jon nisor o'zgarماسak.

Tutqun edik hurmiz, mana, yurt mustaqil  
Bo'lmaylik ofatga duchor o'zgarماسak.

Evrildi dil, evrildi fe'l, evrildi el  
Yashnarmidi gullab diyor o'zgarماسak?!

Bizlarda beklik nomi bor, bekmiz, axir  
Bek qavmimiz etmasmi or o'zgarماسak?!

Va'zlar, quruq so'zlar bilan yurmaydi ish,  
Hech kimga gap qilmaydi kor o'zgarماسak.

Dunyo—o‘yinxona ketar unda o‘yin,  
Domiga tortgay bu qimor o‘zgarmasak.

Tangrim aziz etgay ki solih bandasin,  
Qilgay urushlar xoru zor o‘zgarmasak.

Go‘yo Iroqu, Shom misoli yovlashib,  
O‘z-o‘zni qilgay tor-mor o‘zgarmasak.

Maqsad urushmasdir, qurish, yo‘qsa bu yurt  
Bo‘lgaymidi mangu bahor o‘zgarmasak?!

Otang-bozor, onang-bozor derki elim,  
O‘tmay kasod bo‘lgay bozor o‘zgarmasak.

O‘zgarsa dunyoga saboq bergay bu el,  
Xorijda bo‘lgay mardikor o‘zgarmasak.

Bizni kechirmaydi Xudo, ey keksalar,  
Yoshlarga aylab e’tibor o‘zgarmasak.

Yoshlarga ham mavrid kelar keksaygani  
Olmoqni boz bermog’i bor o‘zgarmasak.

Tinchlik yo‘li birlikdadir, do‘stlikdadir,  
Ishlar abad o‘lmas baror o‘zgarmasak.

Niyat buyuk: Yurtni buyuk yurt aylamoq,  
Ro‘yobga chiqmas bu qaror o‘zgarmasak.

O‘zgarmaganlar o‘zmagay olam aro,  
Yor o‘lmas oldingi qator o‘zgarmasak.

O‘zgargin, ey xalqim! Ziyo, nur izla, yon  
Fathu zafar bo‘lmaydi yor o‘zgarmasak!

## **BALOLARNING XATARLISI**

Balolarning xatarlisi–  
Haqiqatga ishonchsizlik,  
Tamom bebahralik hissi–  
Diyonatga ishonchsizlik.

Ki dardi bedavo qilgay,  
Balolarni ravo qilgay,  
Jahannam ichra jo qilgay  
Ibodatga ishonchsizlik.

Zalolatga yetaklaydir,  
Falokatga yetaklaydir,  
Halokatga yetaklaydir  
Shariatga ishonchsizlik.

So‘kilgay haq ipin choki,  
G‘ajir chok markabin moki,  
Durust bo‘lmaydi hattoki  
Tariqatga ishonchsizlik.

Adolat qilmasa qozi,  
Xudoga yetmay ovozi,  
Ko‘paygay elda norozi–  
Haqiqatga ishonchsizlik.

Ulug‘lar xoru zor bo‘lsa,  
“Quruq”lar baxtiyor bo‘lsa,  
Hayfkim! Qayda bor bo‘lsa  
Ma‘rifatga ishonchsizlik.

Yomonlardan yomon illat,  
Gumonlardan gumon illat,  
Xudosizlikka kon illat  
Itoatga ishonchsizlik.

Bu ayni fe'li nosog'dir,  
Gunohi misli tog'-tog'dir,  
Butun ummat uchun dog'dir  
Shafolatga ishonchsizlik.

Haromxo'rlar bo'lib puldor,  
Halol-poklar esa nochor,  
Tug'ilgay el aro abgor  
Siyosatga ishonchsizlik.

Oqarmay kosasi mangu,  
Yog'ar taqchilligu, qayg'u,  
Qaerda bo'lsa savdoyu  
Tijoratga ishonchsizlik.

Talablar uchsalar yelda,  
Mador-kuch bo'lmasa belda,  
Tamom urf o'lgusi elda  
Kafolatga ishonchsizlik.

Asossiz so'zlasa mullo,  
Da'vosi bo'lsa puch da'vo,  
Qavmda bo'lg'usi peshvo—  
Imomatga ishonchsizlik.

Yonib ba'zan degum: Evoh!  
Sabr bergin, o'zing, Alloh!  
Tug'ilsa kimdadir goh-goh  
Fasohatga ishonchsizlik?..

Ilmli bo‘lmayin baxtli,  
Ilmsiz bo‘lsa toj-taxtli,  
Bu holat uyg‘otar ahli  
Ra‘iyatga ishonchsizlik.

Qay elga solsa g‘am-qayg‘u,  
Adolat yo‘q, degan tuyg‘u,  
Bo‘lar bu el aro baxtu  
Saodatga ishonchsizlik.

Misolikim otib nosni,  
Buyum, deb eski har tosni,  
Tamom qaytargay ixlosni  
Mahoratga ishonchsizlik.

Qaerda haq jazo olgay,  
Va nohaq bejazo qolgay...  
Tug‘ilmas, deb kim aytolgay  
Kaforatga ishonchsizlik?!

Bo‘lib qolsa hayot sahna,  
Epizodlarga yot sahna,  
Solar qonunga ham rahna  
Rayosatga ishonchsizlik.

Tekinxo‘r baxtga chulg‘ansa,  
Mashaqqat ahli bulg‘ansa,  
Yomon! Shu zayli uyg‘onsa  
Layoqatga ishonchsizlik.

Agar bo‘lsa hayot og‘u–  
Yomon ishlar yomoni bu,  
Halokatning nishoni bu  
Jamiyatga ishonchsizlik!

Ziyosan–baxt, samar senda,  
Qarosan–hayf! Zarar senda,  
Adosan! Bo‘lsa gar senda  
Qiyomatga ishonchsizlik!

## **BIR KARVON BORMOQDA ISTIQBOL TOMON**

Meni sarxush aylar bir xayol,  
Xayolparast emasman, lekin:  
Bir mamlakat etmoqda ishg’ol  
Butun dunyo hamjamiyatin.

Bu mamlakat–mening Vatanim-  
O‘zbekiston atalgan diyor.  
Uning yo‘lin to‘sma,  
Ey, g’anim!  
Chunki unga Alloh madadkor.

Unda xamma erkin, ozod, shod  
Xalqlar, millat, elatlar qadar.  
Shunday davlat bo‘moqda bunyod  
Unda bo‘lmas xavotir, xatar.

Elim! deydi, yurtim! deydi Bosh,  
Xalq ham:  
“Mening Yurtboshim!” deydi.  
Do‘st-hamjihat bo‘lib keksa-yosh,  
O‘z ertasin g’amini yeydi.

Xullas,  
Barcha ahil-ahliya,  
Baxtli bo‘lmoq-eng oliy niyat.  
Shu emasmi demokratiya,  
Shu emasmi odil jamiyat!  
Unga xosdir zafar va marra,

Unga hamroh bo‘lgan kam bo‘lmas.  
Shu boisdan yana bir karra  
Uning vasfin qilmasam bo‘lmas:

\*\*\*\*\*

Ey, bashar,  
Ey, tarix,  
Ey, olam-jahon!  
Bir karvon bormoqda istiqbol tomon.  
Shavkatli Sarbon Bosh bu karvon nomi  
Qadimiy, navqiron, hur O‘zbekiston!

\*\*\*\*\*

O‘z o‘rnin qidirib,  
Rizqini terib  
O‘zligin topguncha qon–zardob yutgan,  
Ko‘rgan yoqasiga osilaverib,  
Oxiri yoqasiz yaktakka o‘tgan.  
Dardi yuz ming yillar  
Ichra nihon bu–  
O‘zbekiston bu!

Taqdiri azalning bitik-xatida  
Shu oydin qismat bor bundan ko‘ngil to‘q:  
Dunyoning biron bir mamlakatida  
Gerbida Humo bor bo‘lgan davlat yo‘q.  
Baxt qushi, degan hikmatdan  
Nishon bu –  
O‘zbekiston bu!

Bayrog‘in sathi ham qamrab ololgan  
Zamindan to samo qadar makonni.  
Anglamoq mumkin bu yorqin timsoldan:  
Imkoni cheksizdir bu hur oshyonni.  
Ko‘klarga tutashib ketgan  
Dovon bu –  
O‘zbekiston bu!



Madhiya kuylansa, ko‘zlaring porlar,  
Borlig’ing chulg’agay faxru iftixor:  
Jumlai jahonni o‘ziga chorlar  
Olamni mahliyo aylagan diyor!  
Qalb to‘la ishq, mehr, g’urur bu,  
Shon bu –  
O‘zbekiston bu!

Biz yashar zaminni derlar: Osiyo  
Tegirmon so‘zidan olingan bu so‘z.  
Balki bobolar ilk tegirmon barpo  
Aylab bu hududda ulashgan rizq–ro‘z.  
Dunyoda yaralgan  
Ilk tegirmon bu –  
O‘zbekiston bu!

Navoiy bobomga ta‘zimda olam,  
She’r ila o‘zbekning dong’i ketgandir.  
Quyosh nuri yetmas ovloqlarga ham  
O‘zi yetmasa–da so‘zi yetgandir.  
She’riyat mulkida shoh bu,  
Sulton bu –  
O‘zbekiston bu!

Hakimbek alpligi olamga ayon  
Zabtida to‘qson alp shashti mujassam  
To‘maris dovrug’in aylasam doston  
Ta‘zimga kelardi Janna d’Ark ham.  
Mardlar ichra asl  
Mardi maydon bu –  
O‘zbekiston bu!

Pisandmas mashaqqat to‘la sinovlar,  
G’olib xalq hech qachon charchamas, tolmas.  
Po‘sht, hey, yo‘llardagi to‘siqlar, g’ovlar,

Xaqiqat yo‘lini hech kuch to‘solmas!  
Katta yo‘lga chiqqan  
Katta karvon bu –  
O‘zbekiston bu!

Derlar:  
Oqqan daryo oqaveradi,  
Bizga qismat kulib boqa boshladi:  
Hurlik nash’asi-la to‘lib sarhadi  
Tamom yangi daryo oqa boshladi.  
Daryomas,  
Istiqbol  
Nomli ummon bu –  
O‘zbekiston bu!

Davrlar keladi,  
Yillar keladi,  
Ushalar dildagi orzular bari.  
Dunyoda hali ko‘p o‘rganiladi  
O‘zbek davlatchilik tamoyillari.  
Ajdodlar surmagan  
Davru davron bu –  
O‘zbekiston bu!

Baxt-iqbol bag’rida ko‘rganda o‘zni  
Tillarda yangragay sho‘x qo‘shiq-yalla  
Va dildan otilgan shu qutlug’ so‘zni  
Dunyo ham bizga jo‘r aytar baralla:  
Ko‘hna bu jahonda  
Yangi jahon bu –  
O‘zbekiston bu!

Bu quruq gap yoki as’asa emas,  
Mavridimas endi shovqin-suronni.  
Endi qurol emas, aslaha emas,

Ilm va ma'rifat olgay jahonni.  
Yangi davr,  
Mutlaq yangi zamon bu –  
O'zbekiston bu!

\*\*\*

Ne-ne kunlar ko'rgan, ey dunyo,  
Mag'rur qaddin kergan, ey dunyo!  
Ozod, erkin davlat qurmoqni  
O'zbeklardan o'rgan, ey dunyo!

Yurtboshi bosh bunda keksa-yosh,  
Bir yoqadan chiqarganday bosh,  
Yurt ravnaqi yo'lida dadil  
Ot suradi bo'lib chin yo'ldosh.

Xalqni rozi qilmoq shiori,  
El ko'nglini olmoq shiori,  
Katta-kichiik mansabdorlarni  
To'g'ri yo'lga solmoq shiori.

Xohi to'y, xoh ma'raka bo'lg'ay,  
Kim noahil  
Kalaka bo'lg'ay,  
El hamjihat bo'lsa,  
Albatta,  
Har jabhada baraka bo'lg'ay!

Evrildi xalq,  
Evrildi zamon,  
Evrildi ozod O'zbekiston.  
Iliqlashgan siyosiy iqlim  
Epkinday keng  
Tarqaldi har yon.

Bunda esgan sabo-el tillo,  
Oqibatli qavm-el tillo..  
Eng muhimi,  
Eng asosiysi –  
Bu elga xos ajib fe'l-tillo.

G'amni suvday ichib yuborar,  
Yomonlikni kechib yuborar.  
Beshigiga go'dakni belab,  
Dono qilib yechib yuborar.

Shundan baland doimo qo'li,  
Shundan ochiq hamisha dili.  
Ne ish qilsa, ne ish boshlasa  
Samolarga tutashdir yo'li.

Ko'rgan ne-ne jangu suronlar,  
Qurgan qancha-qancha Turonlar,  
Yetishmagan bejiz Muqanna,  
Manguberdi, Sohibqironlar.

Bardavomdir ushbu shajara,  
Pisand emas  
Tog',  
Adir,  
Dara.  
Dilda borki, ezgu tilaklar  
Egallanar har qanday marra!

Har ish ertangi shon uchundir,  
Yashnoq O'zbekiston uchundir.  
Tom ma'noda har bir jabhada  
Islahotlar inson uchundir!

Qo‘rquv-hadik yo‘q ushbu yurtda,  
Hech kim urmas do‘q ushbu yurtda.  
O‘z turmushi,  
O‘z ertasidan  
Xalqning ko‘ngli to‘q ushbu yurtda!

Oqqan daryo oqaverarkan,  
Boylar boyga boqaverarkan.  
Nasli mehru muhabbatli xalq  
Yuraklarni yoqaverarkan.

Azal Farhod-Shirinlar ahli,  
Muhabbatda hamon toj-taxtli,  
Bor ekanki  
Izlanish,  
Ijod  
Bo‘lgay hayot fayzli, faraxli?!

Bu el bilan jo‘shsa bo‘ladi,  
Dovonlardan oshsa bo‘ladi.  
Dovruqlarga yana dovruqlar –  
Shonlarga shon qo‘shsa bo‘ladi!

Oldindadir eng xush zamonlar,  
Oldindadir davru davronlar.  
Buyuk zotlar chiqqan bu yurtidan  
Chiqar yana buyuk insonlar.

Dunyo bo‘ston bo‘ladi shaksiz,  
Dorilomon bo‘ladi shaksiz.  
Yurtlar aro saflar boshida  
O‘zbekiston bo‘ladi, shaksiz!

### XOTIMA

Ey, odamzot!  
Hayf! deb endi jaholatga,  
Qaytar o‘zni iymon,  
Dinu diyonatga.  
To ro‘baro‘ bo‘lmay turib qiyomatga,  
O‘zgar endi,  
O‘zgar endi!  
O‘zgar endi!!!

Bu-bugungi bamisoli hayot-mamot  
Lahzalarda to‘lib-toshgan qalb sadosi.  
Bu men uchun,  
Bu sen uchun  
Ey, ODAMZOT!  
Yangi davr–  
Yangi zamon taqazosi!

## MUNDARIJA

BASHARIYAT AHLIGA MAKTUB (KARANTINDA YOZILGAN DOSTON) DEBOCHA.....	47
NIQOB XUSUSIDA BIR SHINGIL.....	48
INSONIYAT VA SHAYTONIYAT.....	52
BULBUL BAXSHIDAN BIR XIRGOYI.....	55
EMIRILGAN BUYUK SALTANAT.....	57
EZGU NIYAT YO‘RIQNOMASI.....	59
BUTUN DUNYO AHLIN TILAGI.....	66
MO‘TABAR AYOLLAR HAQIDA TA‘KID.....	70
BULBUL BAXSHIDAN BIR XIRGOYI.....	72
OGOHNOMA.....	73
BIZLARGA HAM.....	74
BALOLARNING XATARLISI.....	76
BIR KARVON BORMOQDA ISTIQBOL TOMON.....	79
XOTIMA.....	86

*Adabiy-badiiy nashr*

**Ziyoviddin MANSUR**

# **BASHARIYAT AHLIGA MAKTUB**

***Muharrir:*** Nosir ABBOS  
***Texnik muharrir:*** Ibrohim YuSUPOV  
***Musahhah:*** Dilobar TO‘RABOEVA

Terishga berildi 20.05.2020.  
Bosishga ruxsat etildi 15.06.2020y.  
Bichimi 60x42 1/16, Hajmi 2.5 bosma taboq.  
Adadi 3000 nusha. Bahosi kelishilgan narxda.



**“NAMANGAN” NASHRIYOTI**  
Namangan shahri, Navoiy ko‘chasi, 36.  
Nashriyot litsenziya raqami AI – 156  
2009 yil 14 avgustda berilgan

**“Vodiy poligraf” MCHJ bosmaxonasida chop etildi**  
**Manzil:** *Namangan shahri, G‘alaba ko‘chasi, 19- uy*